

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:29 (67090)

2016-yil  
18-iyul

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092



## Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!



Anora  
HOJIMATOVA



Isomiddin  
OMONQULOV

**TANISHING:**  
**«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG»**  
Respublika tanlovi g'oliblari

Ayni kunlarda tahririyatimiz har qachongidan gavjum. Tanlov g'oliblari bo'lgan o'quvchilar boboyu buvilari, otanalari bilan kelib, sovg'alarini olib ketmoqdalar. Ularning ko'zidagi quvonchni ko'rib, ko'nglimiz yayraydi.

(Davomi 2-betda)



Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Mahmuda Valiyeva shogirdlari – Dildora Sunnatova va Boburjon Baxtiyorovna tanlovda faol ishtirok etgani bilan qutlamoqda.

*Bizga maktub yo'llabsiz...*

**BUVIM BIZ UCHUN IBRAT**

**Buvimni Shayxontohur tumanidagi «Oqtepa» mahallasida Ma'mura opa desa, hamma tanir edi. Hazilkash, pazanda ayol edilar.**

Bizga doim «Boshingga qilich kelsa ham rost gapir», derdilar. Tansiq taom tayyorlaganda qo'shnichilik deb, oldini Karima, Robiya xolaga, Rixsi ayaga chiqarardi. O'rigimiz pishishi bilan uni hammaga ulashardik. Katta oyim rayhonni yaxshi ko'rganlari uchunmi, Hamidulla buvam hovlimizga ko'p-ko'p rayhon ekardilar. Buvimning chakkalaridan rayhon uzilmasdi. U kishi yana «Uvoldan qo'rqinglar, oshxona jihozlarini pokiza saqlanglar, ana shunda ro'zg'orda baraka bo'ladi», deb takrorlab charchamasdilar.

Katta oyim oramizdan ketganlariga besh yil bo'ldi. Biz ularga munosib bo'lishga, xayrli ishlarini davom ettirishga doim harakat qilamiz.

**Mohinabonu HAMIDULLAYEVA, poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 299-umumta'lim maktabi o'quvchisi**

**MENING MUNOSIB SOVG'AM**

**Sevgi, sadoqatim senga atalgan, Qarog'imda porlar cheksiz muhabbat. Vatanim bu jonim senga fidodir, Sha'ningni ko'klarga ko'targum, albat.**

Men «Biz buyuk yurt farzandlarimiz» shiori ostidagi festivalning «Yurt kelajagi iqtidorli yoshlar qo'lida» loyihasida faxriy yorliq bilan taqdirlandim. Bu kabi tadbirlar biz yoshlar qalbida xursandchilik bilan bir qatorda o'zimizga bo'lgan ishonchni ham oshiradi. Ko'rsatilayotgan yuksak e'tibordan ruhlanib, yanada samarali ijod qilishim kerakligini chuqur his etgan holda Vatanimiz Mustaqilligining 25 yilligi arafasida ilk she'riy kitobimni tengdoshlarimga tuhfa etmoqchiman.

**Durdona YO'LDOSHEVA, Toshkent viloyati, Parkent pedagogika va iqtisodiyot kolleji o'quvchisi**

**SALOMATLIK SIRI**

**Dunyoda eng katta boylik sog'likdir. Sog'lom bo'lish uchun nimalar qilish kerak? Menincha, bunda sport bilan shug'ullanish va tozalikning o'рни katta.**



Maktablarimizda sport maydonchalari bugungi kun talabi darajasida jihozlangan. Turli sport o'yinlari bizni chaqqon va epchilikka o'rgatadi.

Ertalab vaqtli uyg'onib, badantariya mashqlarini bajaraman. Bu odat kishining sog'lom bo'lishida katta rol o'ynasa, ajab emas. Insonlarning o'zaro xushmuomala bo'lib, kayfiyatlarini ko'tarib yurishlarining ham sog'liqqa katta nafi bor. Eng muhimi, sog'lom bola – boy bola ekanligini aslo unutmaylik!

**Elishod ERKINOV, Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 48-umumta'lim maktabi o'quvchisi**

**QARSHIDAGI QADIMIY KO'PRIK**  
*Istiqlol tufayli zamonaviy qiyofa kasb etdi*

**Tarixdan ma'lumki, buyuk bobokalonimiz Amir Temur o'z mamlakatida bunyodkorlik, obodonchilik ishlariga alohida e'tibor qaratgan. Ayniqsa, ko'prig-u yo'llar, masjid-u madrasalar, go'zal bog'-u rog'lar bunyod etgan.**


Bilsangiz, hozirgi Qashqadaryo viloyatining ma'muriy markazi Qarshi shahrida uzoq yillik tarixga ega ko'priklar bor. E'tiborlisi, ushbu muh-tasham inshootni bundan yetti yuz yil avval Amir Temur bobomiz bunyod etgan. Avvallari ushbu ko'priklar Qashqadaryo daryosining ikki sohilini bir-biriga tutashtirgan. O'rta asrlarda bu yerdan Eron va Hindistonni Yevropa bilan birlashtiruvchi karvonlar o'tgan.

– Yaqinda dadam meni Qarshi shahrida yangidan ta'mirlanib, foydalanishga topshirilgan ko'priklarning ochilishiga olib bordi. U yerda ko'plab bolalar bilan daryodagi katamaranlarda sayr qildik, attraksionlarda uchdik, muzqaymoq yeb, maroqli hordiq chiqardik. O'quv yili boshlangach, Qarshida olgan taassurotlarim haqida ijodiy insho yozmoqchiman, – deydi Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Umid Husanov.

Hozirda bu qutlug' maskanga nafaqat Qashqadaryo, balki yurtimizning turli go'shalaridan mehmonlar tashrif buyurib, uning chiroyidan hayratga tushmoqdalar.

– Oynayi jahon orqali Qarshi shahridagi yangi ko'priklar ochilishini ko'rib, u yerga borishni orzu qildim. Oyinga bu haqda aytganimda, ular bajon-u dil rozi bo'ldilar. Qarshiga kelib, televi-

zorda ko'rganlarimdan-da chiroyli manzaraning guvohiga aylandim. Nasib bo'lsa, uyga qaytib, ko'priklar va uning atrofida sayr qilib yurgan baxtiyor insonlarning rasmini chizmoqchiman.



**Xabaringiz bor, 2015-yil 30-iyun kuni Prezidentimiz ushbu viloyatga tashrifi chog'ida mazkur tarixiy inshoot atrofini xalqimiz dam oladigan go'zal va maftunkor maskanga aylantirish lozimligi haqida kerakli tavsiyalar bergan edi. E'tiborlisi, o'tgan qisqa davr mobaynida ushbu hududda keng ko'lamli bunyodkorlik, obodonchilik, ko'klamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi. Yaqinda ushbu inshoot to'liq qayta ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirildi. Bu esa voha ahli uchun Istiqlol bayramining 25 yilligiga munosib sovg'a bo'ldi.**

– deydi Surxondaryo viloyati, Boysun shahridagi 1-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi, tasviriy san'at bo'yicha bir necha tanlovlar g'olibi Obidjon Ne'matov.

Kelajakda ushbu betakror maskan nafaqat yurtimiz aholisi, balki chet ellik sayyohlarning ham sevimli maskaniga aylanishiga ishonamiz.

**Sa'dullo TURSINOV**

**GO'ZALLIKDAN ZAVQQA TO'LAMAN**

*(Davomi. Boshi 1-betda)*

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi Muzaffar Abdunazarov bilan tezda chiqishib ketdik. Farg'onaliklarga xos hazil-mutuyibaga moyil yigitcha bilan suhbatimiz maroqli kechdi. Tanlovning tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lgan Muzaffar ona tili va adabiyot faniga ham qiziqarkan. Uch yildan buyon maktabdagi tasviriy san'at to'garagi a'zosi. Ustozidan o'rganib kelayotgan bilimi o'z samarasini bera boshlaganidan mamnun.

U ta'tilni uylaridan sal narida joylashgan o'zlariga tegishli bog'da o'tkazayotgan ekan. Olma, o'rik, shaftoli kabi mevali daraxtlarga boy bu maskanda yangi nihollarni parvarishlashda otasiga ko'maklashib, bog'bon-



likni ham o'rganishga kirishibdi. Hordiq chiqarish chog'larida esa sevimli mashg'uloti rasm chizish ekan.

– Quyuq, sersoya daraxtlar ostidagi salqin supachada uxlaymiz. Erta tongda charaqlab chiqqan quyosh nurlari daraxt shoxlari orasidan o'tib, hammamizni uyg'otadi. O'sha paytda tabiat go'zalligidan zavqlanib, qo'limga qalam olganimni bilmay qolaman, – deydi mehmonimiz ko'zlari quvonchga to'lib. Bu quvnoq gazetxon bilan miriqib gurunglashdik. Kelgusi rejalari bilan tanishdik. Endi gazetamizda e'lon qilinadigan barcha tanlovlarda faol ishtirok etish istagida ekanligidan mamnun bo'ldik. Bunday o'quvchilar ko'pligidan quvonmay bo'ladimi?

**Yusuf ABDULLAYEV**

**Yozgi ta'til boshlangandan buyon tahririyatimizga respublikamizning turli hududlaridan kelayotgan o'quvchilar soni ko'paydi. Ular orasida gazetamizda e'lon qilingan tanlov g'oliblari-yu kitob ixlosmandlari ham talaygina. Bugungi mehmonlarimiz ham olis Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanidan kelishibdi.**

# QUMQO'RG'ONLIK YOSHLAR «TONG YULDUZI»DA

## MUSHTARIY QUVONCHI

Baxtiyor aka jiyani Nilufarni dugonalari Mu-yassar hamda Umida bilan birga Toshkentdagi qarindoshlarinikiga mehmonga olib borishini aytganida, shodligi ichiga sig'may ketdi.

Mehmonlar tahririyatga kelganida, har bir sa-volga shoshilmasdan javob berayotgan Nilufar bilan yaqindan tanishishni istadim.

Uning Fazliddin, Faxriddin ismli ukalari va Nafisa degan singlisi bor ekan. Ukasi Fazliddin sportning ushu turi bilan muntazam shug'ullanib, hatto bir necha musobaqalarda g'olib bo'lishga ham ulgurdi. U ta'lim olayotgan 70-umumta'lim maktabida o'n to'qqiz nafar sinfdoshi bilan badiiy kitob o'qish bo'yicha tez-tez bellashuv o'tka-zib turishlarini maroq bilan so'zlab berdi.

Nilufar ingliz tilini ustozi Norqo'chqor Ano-rovdan, rus tilini Ahmad akadan, kompyu-ter sabog'ini Jumanazar Berdishukurovdan o'rganayotgan ekan. Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Nargiza G'afforova ijodkor qizlarning mashqlarini doimo kuzatib bo-rarkan.

– Sevimli nashrim «Tong yulduzi»ni mun-tazam kuzatib boraman, – deydi tumandagi 70-umumta'lim maktabi o'quvchisi Nilufar Hayi-tova. Gazetada e'lon qilingan «Bolalik kunlarim-da...» rukni ostidagi maqolalarni, shuningdek, ingliz tili sahifasida berib borilayotgan ma'lumot-larni katta qiziqish bilan o'qiyman. Sahifada xori-jiy tildagi she'r va hikoyalar ko'proq berib borilsa, ayni muddao bo'lardi.

Tinch, musaffo osmon ostida har bir kunimiz maroqli o'tayotganidan, shu yurtning farzandi ekanligimdan bax-tiorman. Barcha tengdoshlarimni Vatanimiz Mustaqilligining 25 yilli-gi bilan tabriklayman.

**Nodira NAZAROVA**



ZUBAYDA olgan suratlar

## SAYOHATDAN OLGAN TAASSUROT

Tumandagi 26-umumta'lim maktabi o'quvchisi Mu-yassar Mo'minova bu sayohatdan olam-olam taassurotlar olganini aytdi.

– Toshkentning go'zal manzaralarini televizor orqali ko'rganimda, ko'zlarim quvna b ketardi. Qaniydi, shu joylarga borsam, deb orzu qilardim, – deydi Mu-yassar to'liqinlanib. – Mana, orzum-ga ham erishdim. Dugonalarim bilan birga azim poytaxtga kelib, ko'rkam binolarni o'z ko'zim bi-

Muyassar bu so'zlarni gapirarkan, uning haya-joni cheksiz ekanligi sezilib turardi. Qizchaniq qo'lidagi ilmiy kitobni ko'rib, nega badiiy kitoblar olmadingiz, desam, jilmayib: – Badiiy kitoblar ham oldim. Men kelajakda shifokor bo'lmoq-chiman. Bu kitob esa menga kelgusida juda asqotadi, – dedi.

**Ozoda TURSUNBOYEVA**

## UMIDANING «QIZG'ALDOG'I»

**Tahririyat mehmonlaridan biri 26-umumta'lim maktab o'quvchisi Umida Mo'minova adabiyotga, she'riyatga qiziqarkan. Suhbatimiz davomida bunga o'zingiz ham guvoh bo'lasiz.**



– Yaqinda Qo'sho-qali bobom bilan Toshkentga kel-dik. Poytaxt-da Mustaqil-ligimizning 25 yillik to'yi mu-nosabati bilan olib borila-yotgan katta bunyodkor-lik ishlaridan hayratdamiz.

**Yaqinda foydalanishga topshirilgan «Kitob olami» do'konini aylanib, o'qish uchun badiiy kitoblar sotib oldik.**

Mustaqillik maydonida bo'lib, fusunkor tabiat manzarasi, ko'kka intilgan go'zal favvoralardan ko'zimiz quvnadi. Teleminoraga, istirohat bog'lariga borib, miriqib hordiq chiqardik. Nasib bo'lsa, safardan olgan taassurotlarimni o'rtoqlarimga ham so'zlab bermoqchiman.

Umida bilan suhbatlashar ekanmiz, uning adabiyot fanini, badiiy kitoblar o'qishni juda yax-shi ko'rishini, bunda ustozi Boysari Oqboyevning o'rni katta ekanligini bilib oldik. Yaqinda uning «Qizg'aldoq» nomli she'riy to'plami ham chop etilibdi. U akasi Dostonning san'atga qiziqishi, undan rubob chalishni o'rganayotganligi haqi-da ham maroq bilan hikoya qildi. Shuningdek, suhbatdoshimiz Surxon vohasining eng chek-ka hududi bo'lgan Qumqo'rg'on tumanida bo'lib o'tgan «Kecha kim edig-u, buqun kim bo'ldik» tadbiri haqida ham to'liqinlanib so'zlab berdi.

– Unda poytaxtdan kelgan mashhur san'at-korlar, olimlar, ijodkorlar ishtirok etishdi, – dey-di Umida. – Ular bilan bo'lgan uchrashuv meni yanada ko'proq ijod qilishga, ilm olishga undadi.

Bizning «Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?», de-gan savolimizga, hech ikkilanmay, «Orzum – shi-fokor bo'lish. Bemorlarni nafaqat dori-darmon, balki o'z ijod namunalarim bilan ham davolash istagim bor», deya dadil javob qaytardi mehmon qizimiz.

**Dilorom HOTAMOVA**

**Tahririyatdan:**

**Aziz gazetxonlar, surxondaryolik tengdoshlaringiz bilan xayrlashar ekanmiz, o'ylagan ezgu orzulari amalga oshishini chin dildan tiladik. Siz ham ta'til kunlarini zavq bilan o'tkazayotganingizga ishonchimiz komil. Nilufar, Mu-yassar, Umida singari mutolaa bilan shug'ullanib, ham ma'naviy, ham ma'rifiy dunyoqarashingizni kengaytirib borayotganingizga aslo shubha qilmaymiz. Shunday emasmi?!**

## MAROQLI DAM

Marg'ilon shahridagi 13-umumta'lim maktabidagi «Istiqlol» kunduzgi sog'lomlashtirish oromgohida o'quvchilar mironiyat dam olishyapti.

Yosh avlod yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazishi uchun bu yerda barcha sharoitlar yaratilgan. Poshshaxon G'afurova, Gulira'no Mirsaminova, Dilrabo Ermatova kabi pedagog va tarbiyachilar turli fan va sport to'garaklarida mashg'ulotlar o'tkazmoqda. Stol tennisi, futbol, shaxmat-shashka kabi to'garaklar bolalarning jismonan sog'lom va baquvvat o'sishida muhim omildir.

– Ingliz, rus tili, mohir qo'llar, tasviriy san'at, badiiy havaskorlik, raqs to'garaklari bolalarning bilimni yanada boyitishga, kasb-hunar o'rganishlariga xizmat qiladi, – deydi oromgoh rahbari Guli Turmaxonova.

– «Quvnoqlar va zukkolar», «Tabiat qo'yniga sayohat», «Adabiy kecha» kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ularni vatanparvarlik va tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Muhammadjon MAHMUDOV,  
Farg'ona viloyati

## «CHIMYON SADOSI - 2016»

Toshkent viloyatining «Bo'stonliq tumanidagi «Chimyon oromgohi» sog'lomlashtirish markazida «Chimyon sadosi - 2016» 39-Xalqaro ekologik turistik festivali bo'lib o'tdi.

O'zbekiston ekologik harakati va boshqa bir qator davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda festival doirasida «Biz toza Chimyon uchun» ekologik aksiyasi hamda «Ochiq osmon ostida ekomaktab» ekologik mashg'ulotlari tashkil etildi. Shuningdek, «Buloqcha», bolalar ekologik jurnali tomonidan «Tabiatni asraymiz» mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Amaliy mashg'ulotlar olib borildi.



Ushbu aksiyalarda eng faol ishtirok etgan yoshlarga faxriy yoriqlar, esdalik sovg'alar va ekologik adabiyotlar to'plami topshirildi.

Muxtasar QODIROVA,  
O'zbekiston ekologik harakati  
matbuot tarqatuvchi guruhi  
koordinatori

Yurtimizda kechayotgan yoz faslining har bir kuni bolajonlar uchun taassurotlarga boy o'tmoqda. So'lim va bahavo go'shalarda sayr qilish, turli tadbir va ko'ngilochar o'yinlar tashkil etish, sayohatlar uyushtirish, jismoniy tarbiya va sport musobaqalarini o'tkazish, ular xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

## TA'TIL SURURI

G'allaorol tumanidagi bir qator maktablar qoshida tashkil etilgan sog'lomlashtirish oromgohlari faoliyati oldingi yillarga qaraganda namunalilik tashkil etilgan. Ayniqsa, 2-umumta'lim maktabi qoshidagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohida dam oluvchilarning har bir kuni sarmazmun o'tmoqda.

Oromgohda hordiq chiqarayotgan 70 nafar bolajonlarning sho'x-shodon o'yin-kulgilari bir dam ham tinmaydi. Tajribali pedagog Sobir Sodiqov rahbarligidagi ushbu oromgoh Morguzar tog' tizmalari oralig'ida joylashgan bo'lib, bu yerdagi so'lim manzaralar, anvoyi gullar taratayotgan yoqimli hid, anholdan shildirab oqayotgan zilol suv barchaning diliga orom va halovat bag'ishlaydi.

– Bu oromgohda birinchi marta bo'lishim, – deydi Nilufar Sa'dullayeva. – O'tgan yili o'rtoqlarimdan eshitib, bu yil dam olgani keldim. Jismoniy tarbiya va sport yo'riqchisi Abduvohid Abdu-

jalilov yetakchiligidagi tarbiyalanuvchilar an'anaviy o'yinlardan tashqari «Tortishma-choq», «Yelkada kurash», «Kim chaqqon?» kabi milliy o'yinlar, oromgoh bo'ylab tez yurish va yugurish mashqlari orqali o'z salomatliklarini tiklamoqda.

Oromgohning «Bulbulcha» va «Boychachak» guruhlarida esa qo'li gul qizlar tomonidan tikilgan buyumlarda ko'zni qamashtiruvchi ipaklar jilosi va ranglarning uyg'unlashuvi kishini o'ziga maftun etmay qo'ymaydi.

– Oromgohlarda olib borilayotgan har bir tadbir bolalar dunyoqarashini

boyitish, ijodiy qobiliyatini shakllantirish va ma'naviy kamol topishida yordam beruvchi asosiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi, – deydi viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Isomiddin Umarov. – Mavsum boshidan tayyorgarlikni hukumatimiz tomonidan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida bolalarni dam oldirish va sog'lomlashtirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Qarori asosida tashkil etganmiz.

Abdulla SAIDOV,  
Jizzax viloyati

## «NIHOL» DAGI JO'SHQIN HAYOT

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi «Nihol» dam olish maskani ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan bo'lib, bolajonlar har mavsumda xorijiy bilimlarini mustahkamlaydilar.

Har bir guruh tayyorlagan ertaklar ingliz tilida namoyish etiladi. Ibrohim Nurmetov rahbarlik qilayotgan oromgohda o'quvchilar 5 guruhga bo'lingan bo'lib, Marviya Jo'rayeva, Yulduz Hamdamova hamda Umida Qodirova, Nigora Abdurahmonova, Gulhayo Muhsumova, Gulnora Shamsiyeva, Feruza Almatova, Xurshid Qayumovdek tarbiyachi va shifokorlar bolajonlarning yozgi ta'tili esda qolarli o'tishi uchun bor mahoratlarini ishga solmoqdalar.

Bu yerda mavsum boshida 3 kunlik spartakiada o'tkazilishi an'anaga aylangan bo'lib, birinchi kuni jamoalar tashkillashtirilib, bolalar uzoqlikka sakrash, 30, 60, 100 metrga yugurish, stol tennisi, shaxmat-shashka musobaqalarida ishtirok etadi. Ikkinchi kun jamoaviy tarzda futbol, voleybol, basketbol turida bel-lashadilar. Uchinchi kun esa quvnoq startlar



va suzish bahslarida kuch sinashadilar. 30 metrga yugurishda Diyoraxon Sarvarxonova 1-, 60 metrlikda Ibrohim Nig'matov, 100 metrga yugurishda Ziyoda Yo'ldoshevaga teng keladigani topilmadi.

«Ertaklar-yaxshilikka yetaklar» shiori ostida ingliz tilidagi «Sholg'om» ertagini sahna-lashtirgan 1-guruh bolalari g'olib bo'lishdi.

Nurbek QIDIRALIYEV

**DIVISION (Taqsim)**

*Short story*

One day two boys played in outside and they found a nut. First boy said:

- I will take it, I have seen it before you. Second boy:

- No, comrade, I will do, I took it from the ground. So two boys argued. A young man came and said:

- Hey, children! Do not dispute and hurry, I will divide it for you.

He took the nut from them and divided into two parts, a half portion of husk he gave to first boy, the second half portion of husk to the second boy. After it he said:

- Here, other remnant for the man who divided, so young man ate kernel and went away. Then children stayed with husks on their hand.

Conclusion: If somebody is not content for things which he has, he can separate from them.


Abdulla Avloniy



YOQUBBEK chizgan rasmlar

Translated by Sarvinov NAZAROVA

**FIND THE PAIRS OF SYNONYMS (Juft sinonimlarni toping!)**



Umida UMAROVA

**FIND THE NEW WORDS (Yangi so'zlarni toping)**




Sitora NAPASOVA, Navoiy region

**SUMMER HOLIDAY WORD SEARCH**

B	A	T	H	I	N	G	S	U	I	T
L	F	U	M	H	J	K	W	A	V	E
A	R	B	F	G	D	S	I	V	C	B
N	T	E	Y	U	K	F	M	W	Q	P
K	S	H	O	V	E	L	M	N	V	M
E	W	S	E	A	S	H	E	L	L	R
T	O	W	E	L	S	U	R	F	E	R
S	U	N	B	A	T	H	E	R	B	H
S	U	N	G	L	A	S	S	E	S	C
S	A	N	D	C	A	S	T	L	E	X

**DO YOURSELF (O'zing bajar)**

Put words to the empty circles.



Prepared by Dinora SHAKIROVA

**FIND THE ODD WORD (Ortiqcha so'zni toping)**

Look at the words. Which word is not in the same group with the others?


- Wind, fog, rain, sky.
- Pineapple, potato, banana, pear.
- Scarf, shirt, skirt, rock.
- Surfing, swimming, sleeping, diving.
- Hi, goodbye, tomorrow, hello.
- Shark, whale, kangaroo, piranha.



Ibrohim FAYZIRAHMONOV, the pupil of republic radio and television collage

**FIND THE COLORS (Ranglarni toping)**

Put two word pieces together and you will know what these colors are. And dying this rainbow.



Madina HAMROYEVA, the pupil of school № 244 in Yashnobod district

**O'ZBEKISTONIM**

Senda tug'ilib o'sdim,  
To'kildi kindik qonim.  
Ko'nglimda sadoqatim,  
Mening O'zbekistonim!

Vatanim, jonajonim,  
Onamdek mehribonim.  
Quchog'ingda ulg'aydim,  
Saxiysan, jonajonim.

Mening jon-u jahonim,  
Muqaddassan makonim.  
Shonli iqbolim mening,  
Go'zal O'zbekistonim!



**BAXTIYOR QIZMAN**

Xorazmda tug'ilganman, baxtim bor,  
«Kamalak yulduzi» degan taxtim bor.  
Loyiq farzand bo'lay, degan ahdim bor,  
Men yurtimning eng baxtiyor qiziman.

Farzandlari al-Xorazmiy avlodi,  
Beruniy-u Ogahiyalar – ajdodi.  
Bizlar shunday buyuk xalqning zurriyodi,  
Tengsiz elning men baxtiyor qiziman.

Buyuk bobolar ruhidir bizga yor,  
Har bir ishda bo'lib turar madadkor.  
Shu tufayli biz yashaymiz baxtiyor,  
Shunday yurtning men baxtiyor qiziman.

**Inoyatoy RAHIMOVA,**  
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi  
1-son IMI o'quvchisi

**ONALAR YOZADI**

– Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati ijodkorlaril Men sizlarga Navoiy viloyatining Zarafshon shahridan xat yo'llayapman. O'g'lim Sherzodbek Abdumurodov bu yil 4-sinfni a'lo baholarga bitirdi, – deb yozibdi Iroda Eshqobilova. – U she'r yozishga ham qiziqadi. Uning ijod namunalarini sizlarga yuboryapman. Gazetada chop etsangiz, juda xursand bo'lar edim.



Yoz keldi-yu yoz keldi,  
Qaynoq Quyosh soz keldi.  
Qushlar quchib samoni,  
Bir go'zal ovoz keldi.

**VATANJONIM – VATANIM**

Bag'ringda mangu bahor,  
Poyingga bosh qo'yar qor.  
Tarovating betakror,  
Vatanjonim – Vatanim,  
Onamdek mehribonim.

Momomsan, hikmatga kon,  
Bobodan meros makon.  
Sen bilan tutashdir jon,  
Vatanjonim – Vatanim,  
Onamdek mehribonim.

«Xamsa»-yu «Boburnoma»,  
Yer yuzida yagona.  
Bobolarim alloma,  
Vatanjonim – Vatanim,  
Onamdek mehribonim.

Bizlar o'ynoqi soymiz,  
Qaynoq mehrga boymiz.  
Xizmatlaringga shaymiz,  
Vatanjonim – Vatanim,  
Onamdek mehribonim.

**SHOVULLAYDI JO'SHQIN SOY**

Tog' havosi xushhavo,  
Tanlarga berar davo.  
Shovullaydi jo'shqin soy,  
Sohilida so'lim joy.

Bir, ikki, uch yuramiz,  
Quvnoq suhbat quramiz.  
Davraga kel tez o'rtoq,  
Oromgoh kutar mushtoq.

Bizni bag'riga chorlar,  
Ko'ksida mehr porlar.  
Chopamiz, chiniqamiz,  
Dam olib, miriqamiz.

Bir, ikki, uch yuramiz,  
Quvnoq davra quramiz.  
O'zbekiston tog'lari,  
Yozgi ta'til chog'lari.

Bag'riga olar bizni,  
Baxtiyor o'g'il-qizni.  
Bir, ikki, uch yuramiz,  
Quvnoq davra quramiz.

**(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)**

**Xudoyberdi TO'XTABOYEV,**  
O'zbekiston xalq yozuvchisi

Bobojonim, enajonim bilan yig'lab xayrlashdim.

Endi men sizga ertakchi, ertak aytganda ham hammani o'ziga maftun qilib oladigan enajonim, eshakning orqasiga mindirib sayilarga olib boradigan Erka bobom bilan yig'lab-yig'lab xayrlashganimni aytmoqchiman.

Meni intizor kutayotgan kasalmand oyijonim oldiga ketayapman.

Kurashga tushganda hammani yiqitadigan Hayitvoy, Yusufali, hammadan tez yuguradigan Dilijon, gapirganda «chatoq-chatoq», deb uf tortib qo'yadigan Yunus o'rtoqlarimni tashlab ketayapman. To'g'ri, bobojonim qishga hamma narsani tayyorlab qo'ygan, sandiqda quritilgan mayiz, yong'oqlarimiz bor.

Bilaman, men boradigan oyijonimning uylari qup-quruq. Enajonimning aytishicha, ularnikida hech narsa yo'qligidan sichqonlar hassaga tayanib yurishar emish. Mayli, ketayapman. Qolganini keyin aytaman.

Maktabdan qaytib, inqillab-sinqillab yuradigan bobojonimni surib-surib tanchaga yotqizdim. Ehtiyotlab oyog'ini tanchaga tiqdim. O'zim ham birpas mazza qilay deb endigina o'tirgan edim. Hovlidan javrab-javrab kelayotgan enajonimning ovozi eshitilib qoldi:

– Ey, zolimlar, Tagobni tinch qo'ysanlarmi, yo'qmi, ocharchilik, qahatchilik, har kuni bittasi o'lib turibdi, qoraxatlarning hisobi yo'q. Sigirlarimizga soliq solasan, sigiri yo'qlarga ataylab sotgansan, deb jarima solasan. Tuxum solig'i, daraxt solig'i. Yurtning boshi malomatdan chiqmay qoldi-ku... Otasi, eshityapsizmi, o'rtog'ingizning ikki o'g'lini qo'llarini orqasiga bog'lab,

olib ketishipty. Bechora Savriniso o'rtog'im sochini yulib, faryod chekib o'tiribdi....

– Enajon, siz aytgan ikkovi yalang'och otga minib, tog' tomonga qochib ketdi-ku, – deb gap qo'shgan edim, enajonim:

– Jim bo'l, – deb urishib berdi. – Bolasi qochgan bo'lsa, bechora Umirzoqni hibbs qilishibdi-ku, butun qishloqqa ko'z-ko'z qilib haydab ketishipty-ku.

– Jim bo'l, – deb urishib berdi. – Bolasi qochgan bo'lsa, bechora Umirzoqni hibbs qilishibdi-ku, butun qishloqqa ko'z-ko'z qilib haydab ketishipty-ku.

– Teparmikan?!

Xuddi o'sha tepkini men yegandek alam bilan o'rnimdan turib ketdim.

– Ha, temirchi otasiga o'xshab u ham tepong'ich eshakning o'zi bo'lgan.

– Hozir boraman, o'sha te-

cha eringdan qolgan kumush idishlarini sotib menga eshak olib berasan, tuz konidan tuz keltirib, qishloqqa-qishloq yurib sotib, uyga oziq-ovqat keltiraman, deb har kuni janjal ko'tarar emish. Oyijonim yo'q desa, o'gay akam uni so'kib, tepib, ko'chaga chiqib ketarmish.

– Teparmikan?!

Xuddi o'sha tepkini men yegandek alam bilan o'rnimdan turib ketdim.

– Ha, temirchi otasiga o'xshab u ham tepong'ich eshakning o'zi bo'lgan.

– Hozir boraman, o'sha te-



**TAGOB QISHLOQ ERTAKLARI (Qissa)**

– Bo'ldi, diydoyongni bas qil endil – boshini yostig'idan ko'tarib qattiq ovozda dedi bobojonim.

– Siz o'zingiz jim turing, – bobonikidan qattiqroq ovoz bilan dedi buvijonim.

– Mayli, iching to'lib ketgan bo'lsa, bo'shatib ol, – shunday deb bobojonim yuzini teskarli burib oldi.

Enajonim bechora har zamon, har zamonda gapga tushib ketadi. Hech kim to'xtata olmaydi.

Oyijonimning ahvoli og'irlashibdi, endi o'rmidan turolmay qolibdi. O'gay akam eshagini o'g'irlatib kelgandan buyon tund bo'lib qolibdi. Boyvach-

pong'ich bilan o'zim gaplashaman!

– O'tir!

– Anovi mechkay Xalil bilan ham o'zim gaplashaman. Bechora oyijonim singilchalarimga ozgina ovqat olib qo'ysa, mana shu Mechkay kechasi turib, ovqatlarini yeb qo'yarkan. Ertalab turib, men yeganim yo'q, mushuk yegan deb, mushukni tutib urarkan... Boraman, hozir boraman. Oyijonimni urgan qo'llarini sindiraman.

– O'tir deyapman!! Bas qil, deyapman!!!

– Enajon, endi bas qilmayman. Nega oyimni soqoli o'sgan chol-

ga berdilaring, tepadigan cholga qizimni bermayman, demadilaring?! Men o'sha cholni yomon ko'raman.

Do'konidagi ko'mirning hidi-ni yomon ko'raman. Doim dam bossang ovqat yeysan, bo'lmasa ovqat yo'q, deydi. Mana shu mechkay Xalilni hammasidan yomon ko'raman. Qachon borsam, o'gay otam ikkovlaring kurashga tushasanlar deydi, Xalil meni chalib yiqitadi, yong'oq bilan mayizni o'sha oladi. O'gay akam yomon, yolg'on-chi, oshiq o'ynaymiz deb, qistaydi-da, qo'rg'oshin qo'ygan oshig'i bilan hamma oshiqklarimni yutib oladi.

Yo'q, endi men hammasini yomon ko'raman, hammasidan o'ch olaman. Bo'ldi, oyijonim oldilariga ketaman. Oyijonimni urganlardan o'ch olaman. Yo'q, Yo'q! – deb o'rnimdan tarayotgan edim, o'zimni bilmay qoldim shekilli, enajonimning tizzasiga yiqildim.

Enajonim, yelkalarimni silayotganini arang sezib ham turibman, qiziq, uxlab qolibman.

Yo'q, butunlay uxlamaganga o'xshayman...

**(Davomi bor)**



## ULARGA HAVAS QILAMAN

**Hozirgi kunda mamlakatimizdagi har bir ta'lim maskani zamonaviy sport anjomlari bilan ta'minlangan. Shu jumladan, bizning maktabimizda ham sport bilan shug'ullanishimiz uchun barcha sharoitlar bor.**

Biz tumanimiz vakili, shashka va shaxmat bo'yicha Osiyo chempioni Sarvinoz Qurbonboyeva bilan faxrlanamiz. Shuningdek, sportning karate, oyama-kiokushin turi bo'yicha O'zbekiston chempioni, bir necha diplom va medallar sohibi Asadullo Qo'lboev ham barchamizga o'rnak.

Viloyatimizda ko'pchilik qizlar sportning gimnastika, shaxmat-shashka, suzish kabi turlari bilan shug'ullanib kelmoqda. Mening sinfdoshim Iroda Sulaymonova gimnastika bo'yicha ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Gimnastikachi qizlar har tomonlama chiroyli bo'lib voyaga yetadi. Men ularga juda havas qilaman. Shu bilan birga ular safida bo'lishga harakat qilaman.

**Madina OMONQULOVA,**  
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi  
34-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

## GANDBOLCHI ITALIYADAN QAYTDI

**Shuhrat Almanov poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 319-umumta'lim maktabi bitiruvchisi. U 7 yildan beri tumandagi 5-bolalar va o'smirlar sport maktabining gandbol to'garagiga qatnashib keladi. Umidli sportchimiz iqtidori sabab salkam ikki yildirki O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi. Yosh qo'l to'pi ustalaridan iborat jamoa o'tgan yili Singapur, Eron davlatlarida bo'lgan musobaqalarda ishtirok etdi.**

Joriy yilning 4-9-iyun kunlari Rossiyaning Tolyatti shahrida bo'lib o'tgan an'anaviy gandbol festivalida Abdumannon Abdurahmonov murabbiyligidagi jamoa faxrli o'rinni qo'lga kiritdi.



**Yaqinda Italiyada bo'lib o'tgan Jahon kubogida Shuhrat Almanov ishtirokidagi O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi 8 ta davlatni mag'lub etib, finalda Germaniya gandbolchilaridan 16:15 hisobi bilan g'alaba qozonib 1-o'rinni egalladi.**

– O'g'limni kutib olish uchun aeroportga chiqqanimda, samolyotdan tushib kelayotgan O'zbekiston sportchilari orasida farzandimni ko'rib ko'zimdan quvonch yoshi to'kildi. Farzandimning yurtimiz sharafini himoya qilishga yaraydigan inson bo'lib ulg'ayayotganidan ich-ichimdan suyundim, – deydi sportchining onasi Gulnora opa.

Biz ham opaning quvonchiga sherikmiz. Zero, Shuhrat kabi yoshlar mamlakatimiz ertangi kuni, tayanch va ishonchidir.

**N. JAVHAROVA**

**Namangan viloyatining Kosonsoy tumanidagi 16-umumta'lim maktabini sportchilar maskani deb atashadi. Nimaga, deysizmi? Chunki u yerda sportning shaxmat-shashka va karate turlari bo'yicha chempionlar talaygina.**

## SEVIMLI MASKAN

Maktabning 6-«B» sinfini bitirgan Mumtozbegin Xalilova ko'p yillardan beri sportning taekwondo WTF turi bilan shug'ullanib, nafaqat viloyat, balki respublika miqyosidagi musobaqalarda ham sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqda.

Joriy yilning 2-3-iyul kunlari Janubiy Koreyaning Kyonju shahrida bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada u 3-o'rinni olishga muvassar bo'ldi.

Maktab bitiruvchisi Oqilbek Hamidov viloyatda eng yaxshi shaxmatchilardan biri sanaladi. U ko'plab musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritdi.

«Andijon OPEN» respublika turnirida oltin medal sohibi bo'lgani, «Kamolot» shaxmat taxtasi – 2016» musobaqasida 3-o'rinni zabt etgan shular jumlasidandir. 2016-yil «Umid nihollari» sport musobaqalarida shaxmat bo'yicha tuman, viloyatda g'oliblikni qo'lga kiritib, mamlakat bosqichida faxrli o'rinni egalladi.

**Shukrulla G'ULOM**



## YOSHLARIMIZ SHOHSUPADA

**Erkin, yunon-rum va xotin-qizlar kurashi bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zolari Xitoy Taypeyining Taychjun shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatida 1 ta oltin, 2 ta kumush va 5 ta bronza medalni qo'lga kiritdi.**

Erkin kurash bo'yicha vazni 46 kilogrammgacha bo'lgan polvonlar o'rtasidagi bellashuvlarda qatnashgan Rustambek Jo'rayev qit'ada tengsiz ekanini isbotladi. Iqtidorli sportchimiz Tailand, Eron, KXDR va qozog'istonlik raqiblari ustidan g'alaba qozondi. Vazni 42 kilogrammgacha bo'lgan sportchilar o'rtasida Islom Ilhomov 3-o'rinni egalladi.

Yunon-rum kurashi bo'yicha o'z vazn toifasida finalgacha kechgan bellashuvlarda g'alaba qozongan Elbek Ergashev va Muhammadqodir Yusupov kumush medal bilan taqdirlandi.

Ixtiyor Botirov, Muhammadali Obidjonov va Parviz Mo'minov bronza medalni qo'lga kiritdi. Xotin-qizlar kurashi bo'yicha Xadicha Najimova uchinchi o'rinni egalladi.

\*\*\*



Kuni kecha mamlakatimiz yosh bokschilari Qozog'istonda o'tgan xalqaro turnirda 1 ta oltin, 2 ta kumush va 5 ta bronza medalga sazovor bo'ldi.

Vazni 49 kilogrammgacha bo'lgan bokschilar o'rtasidagi bahslarda qatnashgan Hasanboy Latibxonov shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi. O'z vazn toifasida Oybek Mamazulnov va Feruzbek Matisoyev kumush medal bilan taqdirlangan bo'lsa, Anvar Ro'ziqulov, Ravshanbek Umrzoqov, Alisher Habibulayev, Jahongir Tursunboyev va Ikrom Saidov bronza medalni qo'lga kiritdi.

**Shavkat KAZAKBAYEV**

Mo'min AVAZ,  
Sirdaryo viloyati,  
Sirdaryo shahri

## OLAM SIZNI XUSHLASIN

Derazamdan mo'ralab,  
Har sahar bobo quyosh.  
Yotibsanmi hali ham,  
Qani, bo'tam, ko'tar bosh.

Sog'lom nurlar oqimi,  
Sof havoni isitar.  
Sening bu otash bobong,  
Yayrab yurishing istar.

Yurting oltin damlarin,  
Boshidan kechirmoqda.  
Tekin ilm bulog'in,  
Suvidan ichirmoqda.

Quchoq oching olamga,  
Olam sizni xushlasin.  
Boshingizda doimo,  
Yurt bayrog'i yashnasin.

YOQUBBEK chizgan rasm



## TOPISHMOQLAR

Liboslari naqshinkor,  
Yelib yurar u halak.  
Maskani bog'-u, gulzor,  
Uning nomi ...

Yetamiz zarur joyga,  
Bog'cha, maktab, yo' ishga.  
... bo'lmaganida,  
Yurardik toshloq joyda.

Go'yo qishdek yaxlalar,  
Muzdanmi devorlari?  
Turli yemish joylashar,  
... dir, nomlari.

Egasiga yetguncha,  
Mehnat qiladi talab.  
Bag'ishlaydi iftixor,  
Ko'ksingizga qadalib.

Joylashar kitob, daftar,  
Hatto bo'yinbog', kepka.  
Shirin kulcha, suv idishlar,  
Biz deymiz, uni ...

Nilufar SAPAYEVA



## TENGDOSHIMGA HAVASIM KELDI

Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi 26-umumta'lim maktabi o'quvchisi Gulyuz Hamroqulova har doim erishayotgan yutuqlari haqida sevimli gazetasiga maktublar yo'llaydi.

Ahil oila



Gulyuz rasm chizish bilan birga, gul parvarishlashni, ingliz hamda rus tillarini o'rganishni yoqtiradi. Unga tasviriy san'atning nozik sirlarini o'rgatayotgan ustози Munisa opa Hasanova ham shogirdining qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlaridan mamnun. Chunki Gulyuz qator tanlovlarda qatnashib, muntazam ravishda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. U suhbatimiz davomida ingliz tiliga qiziqqani bois, ustози Mirzaali aka Turdiqulov bilan birga kichik she'rlarni xorijiy tilga o'girishni mashq qilayotgani haqida ham gapirib berdi.

Bu tirishoq tengdoshimizga havasimiz ortib, unga kelgusidagi ishlarida omad yor bo'lishini chin dildan tiladik. Quyida esa u chizgan rasmini e'tiboringizga havola etamiz.

Odina SAHOBIDDIN qizi

Xosiyat HASANOVA

## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!


1. Bo'yni uzun jonivor.
2. Shahlo ko'zli kiyik nomi.
3. Sudralib yuruvchi.
4. Buzoqning onasi.
5. O'txo'r hayvon.
6. Uni «qo'rqoq» deyishadi...
7. Go'shtxo'r yirtqich nomi.
8. Ayyor jonivor.
9. Asalxo'r hayvon.
10. O'rmon shohi.
11. Dangasa jonivor.
12. Xaltali ayiq.
13. Bananxo'r jonivor.
14. Uy jonivori.
15. Xartumli hayvon.



Sevinch AKBAROVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Kitob tumanidagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## KROSSVORD

1	J				
2	O				
3			N		
4			I		
5			V		
6			O		
7			R		
8			L		
9			A		
10			R		
11			O		
12			L		
13			A		
14			M		
15			I		



18-iyul 2016

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Vahobjon RAJAPOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Feruza MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Axtamqul KARIMOV  
Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
Sahifalovchidizayner  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Manzilmiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
Adadi - 27721  
Buyurtma - S 6502

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel./faks:  
(99871) 244-63-08